




2020- yilning yanvar-iyul oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **2225,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **94,0 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2,2 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 mingtaga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **104,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **59,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **125,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **121,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **31,3 %**) o'sishidir.



**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.08.2019- yil	01.08.2020- yil	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 018	2 235	110,8
Nukus sh.	1051	1117	106,3
tumanlar:			
Amudaryo	61	57	93,4
Beruniy	98	107	109,2
Bo'zotov		17	-
Qorao`zak	32	38	118,8
Kegeyli	52	50	96,2
Qo'ng'iro't	81	96	118,5
Qonliko'l	33	33	100,0
Mo'ynoq	27	44	163,0
Nukus	73	94	128,8
Taxiatosh	62	71	114,5
Taxtako'pir	24	26	108,3
To'rtko'l	151	182	120,5
Xo'jayli	98	116	118,4
Chimboy	44	49	111,4
Shumanoy	33	43	130,3
Ellikqal`a	98	95	96,9

**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.07.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**




Ma'lumot uchun: respublikada soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Nukus sh. (50,0 %), To'rtko'l tumani (8,1 %) va Xo'jayli (5,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **155,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **62,2** % ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari

hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,5 %** punktga ko'payib, **7,0 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'iro't (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **30,6 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **49,1 %**), Kegeyli (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **17,9 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **94,4 %**), va Taxiatosh tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **27,5 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **57,2 %**) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **82,3 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **18,9 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **121,6 %** ni tashkil etgan holda **1620,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **10,7 %** ni tashkil etdi yoki **239,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **40,0 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **118,5** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2107,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **5,3 %** va **94,7 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya,
kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-iyul

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 58,1 % i yoki **1293,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

58,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **74,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 47,7 % ni tashkil etdi

47,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1015,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 55,6 % ni tashkil etdi.

55,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **204,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 85,3 % ni tashkil etdi.

85,3 %




**2020- yilning yanvar-iyul oylarida
shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2225,8	94,0	100,0
Nukus sh.	657,0	83,3	29,5
tumanlar:			
Amudaryo	97,8	117,8	4,4
Beruniy	130,1	80,7	5,8
Bo'zotov	17,0	244,3	0,8
Qorao`zak	33,7	101,6	1,5
Kegeyli	51,2	104,6	2,3
Qo'ng'iro't	233,6	100,1	10,5
Qonliko'l	50,3	101,4	2,3
Mo'ynoq	105,3	101,8	4,7
Nukus	131,6	105,5	5,9
Taxiatosh	78,8	81,7	3,5
Taxtako'pir	73,2	151,9	3,3
To'rtko'l	220,7	101,6	9,9
Xo'jayli	172,6	87,0	7,8
Chimboy	35,2	101,8	1,6
Shumanoy	27,0	92,6	1,2
Ellikqal`a	110,7	100,5	5,0

Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,3 %** ni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,5 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019-yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **22,2 %** punktga kamayib, **83,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019-yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **21,7 %** punktga kamayib, **16,5 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **23,5 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,8 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **76,5 %** (**6,8 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **16,9 %** punktga kamaydi va **15,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **84,3 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **16,9 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da





**Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar
kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyul oylarida**

mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2225,8	155,6	1830,8	239,4
Nukus sh.	657,0	21,0	613,9	22,1
tumanlar:			0,0	
Amudaryo	97,8	6,7	60,9	30,2
Beruniy	130,1		95,3	34,8
Bo'zotov	17,0	2,5	13,5	1,0
Qoraovak	33,7	0,1	29,5	4,1
Kegeyli	51,2	9,2	36,4	5,6
Qo'ng'iro't	233,6	71,4	151,4	10,8
Qonliqo'l	50,3	0,1	39,5	10,7
Mo'ynoq	105,3	0,0	96,6	8,7
Nukus	131,6	0,3	100,3	31,0
Taxiatosh	78,8	21,7	51,9	5,2
Taxtakopir	73,2	0,4	69,9	2,9
To'rtko'l	220,7	0,7	182,0	38,0
Xo'jayli	172,6	12,5	146,3	13,8
Chimboy	35,2	2,5	30,2	2,5
Shumanoy	27,0	0,0	24,2	2,8
Ellikqal'a	110,7	6,5	89,0	15,2

2020- yilning yanvar-iyul oylarida
shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm

Nukus sh.
657,0



Qo'ng'iro't
233,6



To'rtko'l
220,7



Xo'jayli
172,6



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus sh. (657,0 mlrd. so'm) va Qo'ng'iro't (233,6 mlrd. so'm), To'rtko'l (220,7 mlrd. so'm), Xo'jayli (172,6 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika
boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61) 222-75-91